

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SOATOVA ZARINA AKVAROVNA

**BOYSUN TOG‘ TIZMASI QORINOYOQLI MOLLYUSKALARI
(MOLLUSCA: GASTROPODA) FAUNASI, EKOLOGIYASI VA
ZOOGEOGRAFIYASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Soatova Zarina Akvarovna

Boysun tog‘ tizmasi qorinoyoqli mollyuskalari (Mollusca: Gastropoda) faunasi, ekologiyasi va zoogeografiyasi.....3

Соатова Зарина Акваровна

Фауна, экология и зоогеография брюхоногих моллюсков (Mollusca: Gastropoda) Байсунского горного хребта.....21

Soatova Zarina Akvarovna

Fauna, ecology and zoogeography of gastropod mollusks (Mollusca: Gastropoda) of the Boysun mountain range.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.91.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

SOATOVA ZARINA AKVAROVNA

**BOYSUN TOG‘ TIZMASI QORINOYOQLI MOLLYUSKALARI
(MOLLUSCA: GASTROPODA) FAUNASI, EKOLOGIYASI VA
ZOOGEOGRAFIYASI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Biologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B824 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.Guldu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Pazilov Abduvaeit
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Shakarboyev Erkinjon Berdikulovich
biologiya fanlari doktori, professor

Boymurodov Xusniddin Toshbultayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:


Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019 № 91.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «15» noyabr kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, 4-mavze Tel.: (+99867) 225-39-25, faks: (+99867) 225-39-25, E-mail: glinfo@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 95- raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 120100, Sirdaryo viloyati Guliston shahri, 4-mavze Tel.: (+99867) 225-39-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «23» 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil «23» 10 № 2 sonli reestr bayonnomasi)



B. Y. To'xtayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, b.f.d., professor

F.P. Gaibnazarova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, b.f.d. (PhD), dotsent

E.B. Shakarboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida tabiiy ekotizimlarning tobora kamayib borishi, iqlimning keskin o'zgarishi va antropogen kuchlar ta'sirida biologik xilma-xillikni saqlash muammosi ortib bormoqda. Shu sababli, mollyuskalar biologik xilma-xilligi yuqori bo'lgan tog'li hududlarda tog'-kon sanoatining rivojlanishi, daraxt va butalarning kesilishi, chorvachilikda yaylovlardan haddan tashqari ko'p foydalanish mollyuskalar populyatsiyasining o'zgarishiga va turlar sonining keskin kamayib ketishiga olib kelmoqda, shu sababli, tog'li hududlarda tarqalgan mollyuskalarning (Mollusca: Gastropoda) hozirgi faunistik holatini baholash uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tabiiy va antropogen muhitlarda keng tarqalgan mollyuska guruhlarining atrof-muhit va biologik tizimlarga ta'sirini belgilash ularning populyatsiyalariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va muhofaza chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada malakofaunasiga oid yangi ma'lumotlar bazasini shakllantirish, hududlar ekologik xususiyatlarini o'rganish, munozarali (konxologik jihatidan o'xshash) turlarni molekulyar-genetik tahlil qilish, ularning zoogeografik tarkibi aniqlash, tog'oldi va tog'li hudud landshaftlaridagi antropogen bosimni belgilash va zararli turlariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish, muhofazaga muhtoj turlarni topishga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda biologik resurslardan barqaror foydalanish va bioxilma-xillikni saqlashga oid muammolarni hal etishga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, tabiiy ekologik tizimlarning degradatsiyasini kamaytirish orqali mollyuskalar populyatsiyasi o'zgarishining oldini olish, kamyob va yo'qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Xususan, 2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida¹ "...biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta'minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, tabiiy ekologik tizimlarning tanazzulga uchrash sur'atlarini pasaytirish, hayvonlar va o'simliklarning kamyob va yo'qolib borayotgan turlarini qayta tiklash" vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, Boysun tog' tizmasi qorinoyoqli mollyuskalari (Mollusca: Gastropoda) faunasi, ekologiyasi va zoogeografiyasini zamonaviy holatini baholash, ekologiyasi va hayot siklini asoslash, kamyob va himoyaga muhtoj turlarini saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-noyabrda 914-son "Hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2019-2028 yillar davrida

¹Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "2019-2028 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида биологик хилма-хилликни сақлаш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида" 2019 йил 11 июндаги 484-сон қарори.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 11-iyundagi 484-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qorinoyoqli mollyuskalarning sistematik holati, ekologiyasi, o'zgaruvchanligiga oid tadqiqotlar xorijning yetakchi olimlari G.Falkner, R.A.Bank, T.Proschvitz (2001), B.Facon, P.Jarne (2005), R.Peakall, P.E.Smouse (2006), E.E.Strong (2008), S.A.Bakhoun, M.A.Sayed-Ahmed, E.A.Ragheb (2009), M.Stefan (2018) va boshqalar tomonidan olib borilgan. MDH mamlakatlarida Markaziy Osiyo quruqlik mollyuskalarining sistematikasi, zoogeografiyasi, evolyutsiyasi va xo'jalik ahamiyatiga oid ma'lumotlar M.S.Aleksevnina, Y.V.Presnova (2009), S.S.Kramarenko (2009), S.I.Andreyeva, N.I.Andreev, M.V.Vinarskiy (2010), Y.V.Shikov (2012, 2013, 2016), E.A.Snegin, V.V.Adamova (2016), E.Snegin (2017), M.V.Vinarskiy, Y.S.Babushkin (2018), I.A.Balashovlar (2016, 2021) larning tadqiqot ishlarida aks ettirilgan.

O'zbekistonda malakologik tadqiqotlar Z.Izzatullayev (1970, 1975), A.Pazilov (1992, 1996, 1998, 2005), D.Daminova (2002), A.Karimqulov (2011), F.Gaibnazarova (2017), J.Qudratov (2018), Sh.Abdulazizova (2019), Z.Maxmudjonov (2021), F.U.Umarov (2022) va boshqalarning ilmiy izlanishlarida aks etgan bo'lib, ular, asosan, quruqlik mollyuskalarining taksonomiyasi, evolyutsiyasi, xo'jalik ahamiyati va ularda boradigan o'zgaruvchanlik jarayonlariga to'xtalib o'tgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi tahlili shuni ko'rsatdiki, Boysun tog' tizmasi qorinoyoqli mollyuskalariga oid ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, biroq ular fragmentar xarakterga ega bo'lib, zamonaviy faunistik tarkibi to'liq ochib berilmagan va suv qorinoyoqli mollyuskalariga oid ma'lumotlar yetarli emas. Qorinoyoqli mollyuskalarning ko'payishi va hayotiy tsiklini o'rganish hamda konxologik belgilari o'zgaruvchanligini asoslash, faunistik tarkibini aniqlash va zamonaviy holatini baholash, himoyaga muhtoj va kamyob turlarini saqlab qolish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq hisoblanib, nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "2020-2025 yillarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida (2022-2025) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Boysun tog' tizmasi qorinoyoqli mollyuskalarining faunistik tarkibini aniqlash va ekologik xususiyatlarini ochib berish hamda kamyob va yo'qolib borayotgan turlarning muhofaza qilish tadbirlarini maqbullashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Boysun tog' tizmasi qorinoyoqli mollyuskalarining faunistik tarkibini aniqlash va zamonaviy holatini baholash;

qorinoyoqli mollyuskalarning biotop va statsiya xususiyatlariga ko'ra ekologik guruhlarini aniqlash;

konxologik jihatdan o'xshash turlarni molekulyar-genetik tahlil qilish;

qorinoyoqli mollyuskalarning zoogeografik tarkibini tadqiq qilish;

noyob va muhofazaga muhtoj turlar tarkibini o'rganish va muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Boysun tog' tizmasida tarqalgan qorinoyoqli mollyuskalar olingan.

Tadqiqot predmeti qorinoyoqli mollyuskalarning faunistik va zoogeografik tarkibi, ekologik xususiyatlari hamda turlarning nukleotidlar ketma-ketligi ko'rsatkichlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada zoologik, ekologik, morfometrik, statistik, qiyosiy tahlil va molekulyar-genetik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Boysun tog' tizmasida suv qorinoyoqli mollyuskalarning 5 ta oila, 9 ta avlodga mansub 17 ta turdan iborat taksonomik ro'yxati tuzilgan. Quruqlik mollyuskalarining 12 ta oila, 19 ta avlodga mansub 30 ta turi qayd etilib, ulardan 5 turi (*Vallonia asiatica*, *Cochlicopa dushanbensis*, *C. heptapotamica*, *Turanena scalaris*, *Hesseola bactriana*) O'zbekiston faunasi uchun, (*Pseudonapaeus secalinus*, *Turanena leptogura*, *Neofruticicola donum*, *Macrochlamys kasnakowi*) hudud faunasi uchun 4 ta yangi tur aniqlangan.

Quruqlik mollyuskalari yashash biotoplaridagi namlik bo'yicha 5 ta (kserofil, kseromezofil, mezofil, gigrofil va kriomezokserofil), statsiyalari bo'yicha 11 ta (petrobiont, fitobiont, saprobiont, saprogeobiont, saproripabiont, epifitogeobiont, epifitobiont, epigeobiont, epifitostrabiont, epifitopetrobiont, epifitoripabiont) va ozuqa turlari bo'yicha esa 3 ta (fitofag, saprofag, fitosaprofag) ekologik guruhlariga ajratilgan;

Ps. sogdianus, *Ps. maydanica* va *N. donum* turlari rDNKsi 18S sohasi nukleotidlar ketma-ketligi aniqlangan va genetik materialdagi farqlar asosida o'zgaruvchanlik sabablari ochib berilgan.

ilk bor qorinoyoqli mollyuskalarning zoogeografik tahlili asosida 17 tur suv va 30 tur quruqlik mollyuskalarining areali to'g'risidagi qurg'oqchil iqlim sharoitida chig'anoq belgilarining (shakli, rangi, qalinligi, skulpturasi, kindik tuzilishi va o'lchamlari) o'zgaruvchanligi bo'yicha yangi ma'lumotlar olingan;

muhofazaga muhtoj *Pseudonapaeus secalinus*, *Turanena leptogura* va *Neofruticicola donum* turlarning yashashini cheklovchi omillar isbotlangan va ularni muhofaza qilishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Boysun tog' tizmasida tarqalgan qorinoyoqli mollyuskalarning muhofazaga muhtoj turlar tarkibi aniqlanib (*Pseudonapaeus secalinus*, *Turanena leptogura* va *Neofruticicola donum*) ular populyatsiyasining zamonaviy holati baholangan, tarqalish xaritasi tuzilgan va muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan;

Ps. sogdianus, *Ps. maydanica* va *N. donum* turlarining ribosomal DNK ITS-1 sohasi nukleotidlar ketma-ketligi aniqlanib, Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) bazasiga joylashtirilgan hamda ushbu turlarning molekulyar-genetik identifikatsiyasi uchun manbaa yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Klassik va zamonaviy tadqiqot usullarining qo‘llanganligi malakologik, zoologik, molekulyar-genetik tahlillar asosida olingan natijalarning nazariy ma’lumotlarga mosligi, morfometrik ma’lumotlarning “TIBCO Software Statistica 13.5” dasturida statistik usullar yordamida asoslanganligi, natijalarning nazariy ma’lumotlarga mos kelishi, amaliy natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi va ularni amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Boysun tog‘ tizmasi qorinoyoqli mollyuskalarini kompleks tarzda o‘rganish, taksonomik va zoogeografik tarkibini aniqlash, landshaft-biotopik taqsimlanishi qonuniyatlarini hamda ekologik-biologik xususiyatlarini ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, suv havzalarida yashaydigan Lymnadae oilasi vakillari suvlarning saproblik darajasini aniqlashda ishtirok etganligi va quruqlikda yashaydigan Enidae, Hygromiidae va Helicarionidae oilalariga mansub mollyuska turlari indikatorlik vazifasi ekologik holatni baholashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boysun tog‘ tizmasi qorinoyoqli mollyuskalarining (Mollusca: Gastropoda) faunasi, ekologiyasi va zoogeografiyasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Boysun tog‘ tizmasida tarqalgan qorinoyoqli mollyuskalarning muhofazaga muhtoj turlar tarkibi aniqlanib (*Pseudonapaeus secalinus*, *Turanena leptogura* va *Neofruticicola donum*), ular populyatsiyasining zamonaviy holati baholanishi asosida, tarqalish xaritasi tuzilgan va muhofaza qilish chora-tadbirlari O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Surxondaryo viloyati Boysun bo‘limi faoliyati amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2025-yil 3-fevraldagi 03-03/1-03/3-1037-son ma’lumotnomasi). Natijada, Boysun tog‘ tizmasida tarqalgan quruqlik mollyuskalarning tur tarkibini aniqlash, ularning geoaxborot ma’lumotlarini shakllantirish, tabiiy ekotizimlarda biologik xilma-xillikni va noyob mollyuska turlarini saqlab qolish hamda hayvonot dunyosi davlat kadastrini yuritish imkonini bergan.

Morfologik belgilari bo‘yicha o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lgan turlarning molekulyar-genetik tahlili asosida ribosomal DNK 18S sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo‘yicha ma’lumotlar Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) Genbank bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazining 2024-yil 8-iyundagi ma’lumotnomasi). Natijada, SUB 14516121 *Pseudonapaeus maydanica* PP892183, SUB14516140 *Pseudonapaeus sogdianus* PP892186 identifikatsiya raqamlari olingan va ular xalqaro miqyosda turlarni aniqlash va filogeniyasini o‘rganish imkonini bergan;

Neofruticicola donum turining ribosomal DNK ITS1 sohasi nukleotidlar ketma-ketligi bo‘yicha ma’lumotlari Biotexnologik axborotlar Milliy markazi Genbanki bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar Milliy markazi, www.blast.ncbi.nlm.nih.gov 2024-yil 14-iyundagi ma’lumotnomasi). Natijada, SUB 14493632 *Neofruticicola donum* PP915203 identifikatsiya raqamlari olingan va ular tizimidagi mollyuskalarni molekulyar filogenetik o‘rnini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish nashr etilgan. Ulardan 5 ta maqola, jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanigan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni 108 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqotning obyekt va predmeti ifodalangan, unda tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirish yo'nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qorinoyoqli mollyuskalarning o'rganilganlik holati”** deb nomlangan birinchi bobda qorinoyoqli mollyuskalarining faunasi, ekologiyasi, zoogeografiyasi va muhofazasiga oid, O'zbekiston va O'rta Osiyo Respublikalari, shunga o'xshash tadqiqot ishlari, yaqin va uzoq xorij davlatlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili bayon qilingan.

O'zbekiston va xorijiy davlatlarning qator olimlari tomonidan qorinoyoqli mollyuskalarning taksonomik tarkibi, tarqalishi, zoogeografiyasiga oid ma'lumotlar nazariy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib o'tilgan. Biroq, Boysun tog' tizmasi suv qorinoyoli mollyuskalariga oid ma'lumotlarni umuman yo'qligi, quruqlik mollyuskalarning zoogeografiyasiga oid mavjud ma'lumotlar fragmentar xarakterda ekanligi mazkur tadqiqot ishining dolzarbligini belgilab bergan.


Dissertatsiyaning **“Tadqiqot materiallari, metodlari va tadqiqot hududining tabiiy-geografik tavsifi”** deb nomlangan ikkinchi bobida yig'ilgan material hajmi, tadqiqot biomateriallari va tajriba o'tkazilgan joy xaritasi hamda qo'llanilgan uslublar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot materiallari 2021-2024 yillarda quyidagi hududlardan yig'ildi: Podang qishlog'i atrofi (38°14'35.4"N 67°14'59.3"E), Dugoba tepaliklari (38°20'18.2"N 67°21'48.4"E), Shurob qishlog'i tepaliklari janubiy yon bag'ri (38°11'59"N 66°56'55"E), Yuqori-Machay qishlog'i shimoli-g'arbiy qismi (38°20'09.7"N 67°04'54.7"E), Qizil-Navr tepaligi (38°25'25.6"N 67°05'10.9"E), Dashtigozsoy havzasi chashma va buloqlari (38°12'50.4"N 67°15'01.9"E), Omonxona sihatgohi hududi (38°14'15.6"N 67°19'02.2"E), Galchalik bulog'i (38°13'04"N 67°15'07"E), Kofurin daryo quyilish qismi (37°57'12"N 67°20'59"E), Xo'jamayxona bulog'i (38°17'11.3"N 67°00'34.2"E), Umizbuloq suvlari (38°14'00"N 67°08'34"E), Yalg'iz-Buloq (38°13'28.4"N 67°04'18.1"E), Raushan kuli (38°23'50"N 67°12'02"E), Pudina qishlog'i (38°07'35"N 67°21'39"E), Qayroq qishlog'i janubi-sharqiy qismi (38°19'06.8"N 67°18'41.4"E), Kosh-Bulaksoy (38°16'30.5"N 67°20'23.9"E), Alachapon soy darasi (38°25'35.7"N 67°26'36.1"E), Boysun shahar (38°11'44.9"N 67°13'30.0"E) atrofi, Dii-Bala qishlog'i (Boysun tumani) atrofidagi

vaqtinchalik (bahorgi) buloqlar (38°21'28.7"N 67°25'02.4"E), Ken-tala qishlog'i atrofida bog'lar (38°28'20"N 67°11'04"E), Uljat qishlog'i shimoliy-g'arbiy qismidan (38°08'24"N 67°02'33"E) yig'ilgan.

Tadqiqot hududlaridan jami 2970 tadan ortiq mollyuskalar material sifatida yig'ildi (1-rasm). Ulardan suv qorinoyoqli mollyuskalari 1220 tani, quruqlik mollyuskalari 1750 tadan ortiqni tashkil etadi.

Yig'ilgan materiallar Guliston davlat universiteti qoshidagi "Agrobiotexnologiyalar va biokimyo ilmiy tadqiqot institutining Tuproq zoologiyasi" laboratoriyasida tur darajasigacha aniqlandi. Bunda N.D.Kruglov (2005), A.A.Shileyko (1978,1984), Z.I.Izzatullayev (2018, 2019), A.Pazilov, D.A.Azimov (2003) aniqlagichlaridan foydalanilgan va materiallar qiyosiy tahlil qilingan.



1-rasm. Boysun tog' tizmasida tadqiqot olib borilgan va material terilgan joy xaritasi.

Kuzatuv va amaliy tajribalar Boysun tog' tizmasi shimoliy yon bag'ida joylashgan Alachapon qishlog'i (38°25'35.7"N 67°26'36.1"E) atrofida olib borildi. Olib borilgan molekulyar-genetika tadqiqot ishlar, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Zoologiya instituti "Molekulyar zoologiya laboratoriyasi" va "Ilg'or texnologiyalar" markazi bilan hamkorlikda bajarildi. Olingan ma'lumotlarning statistik tahlili va diagrammalar "TIBCO Software Statistica 13,5 dasturida bajarilgan.

Dissertatsiyaning **"Boysun tog' tizmasi qorinoyoqli mollyuskalarining faunasi"** deb nomlangan uchinchi bobida qorinoyoqli mollyuskalarning tur tarkibi va taksonomik holatiga bag'ishlangan. Har bir turning tavsifi an'anaviy tartibda amalga oshirilgan. Bunda, turning qaysi oila va avlodga mansubligi, turning nomi, yig'ilgan material soni, joy nomlari, konxologik tavsifi va imkon darajada ularning rasmlari, tur ekologiyasi va tarqalishi to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan.

Quyida sistematika va nomenklaturaning zamonaviy talablari asosida turlarning taksonomik tarkibi (*-O'zbekiston faunasi uchun yangi turlar, *-hudud faunasi uchun yangi tur) keltirilgan:

Mollusca - tipi

Conchifera - kenja tipi

Gastropoda Guver, 1795 - sinfi

Pectinibranchia Blainville, 1814 - kichik sinfi

Littoriniformes Pcelintsev, 1863- turkumi

Belgrandiellidae Radoman, 1983 oilasi: *Martensamnicola* (Izzat., Sitn. et Star, 1985) avlodi: *Martensamnicola brevicula* Martens, 1874. *M. hissarica* (Shadin, 1950). *Bucharamnicola* (Izzat., Sitn. et Star, 1985) avlodi: *Bucharamnicola bucharica* (Shadin, 1952).

Horatiidae (Radoman, 1973) oilasi: *Sogdamnicola* Izzatullaev, Stin, et Star. in Izzat., 1984 - avlodi: *Sogdamnicola pallida* (Martens, 1874). *Pseudohoratiinae* Radoman, 1973 - kichik oilasi, *Valvatamnicola* Izzat., Sitn. et Star, in Izzat. 1984- avlodi: *Valvatamnicola prasina* (Rosen, 1903).

Pulmonata Cuvier, 1814 - kenja sinfi

Lymnaeiformes Feruccak, 1814 - turkumi

Lymnaeidae Rafinesque, 1815 – oilasi: *Lymnaea* Lamarck, 1799 - avlodi: *Lymnaea* (L.) *stagnalis* Linnaeus, 1758, L.(G) *oblonga* Puton, 1847, L.(G) *truncatula* Müller, 1774, L.(G) *subangulata* Roffiaen, 1868, L. (R) *psilia* Bourignat 1862, L.(R) *auricularia* Linnaeus, 1758, L.(R) *bactriana* Hutton, 1849.

Physidae Firzinger, 1833 - oilasi: *Physella* Haldeman, 1842- avlodi: *Physella acuta* (Draparnaud, 1805), *Physella integra* (Haldeman, 1841).

Planorbidae Rafinesque, 1815 - oilasi: *Biomphalaria* Preston, 1910 - avlodi: *Biomphalaria tenagophila* (Orbigny, 1835). *Planorbis* Geoffroy, 1767 - avlodi: *Planorbis planorbis* (Linne, 1758). *Anisus* Studer, 1820 - avlodi: *Anisus ladacensis* (Nevill, 1878).

Quruqlik mollyuskalari:

Stylommatophora A.Schmid, 1855 - katta turkumi

Geophila Ferussak, 1812 - turkumi

Pupilloidei Schileyko, 1979 - kenja turkumi

Pupilloinei Schileyko, 1979 - infraturkumi

Orculoidea Steenberg, 1925 - katta oilasi

Orculidae Steenberg, 1925 - oilasi: *Sphyradium* Charpentier, 1837 - avlodi: *Sphyradium dolium*.

Valloniidae Morse, 1864 - oilasi: *Vallonia* Risso, 1826 - avlodi: *Vallonia costata* (Muller, 1774), **Vallonia asiatica* (Nevill, 1878).

Cochlicopidae Pilsbry, 1900 - oilasi: *Cochlicopa* Ferussac, 1821 - avlodi: **Cochlicopa dushanbensis* Starobogatov, 1996, **C. heptapotamica* Starobogatov, 1996, *C. lubricella* (Porro, 1838).

Pupillidae Turton, 1831 - oilasi: *Gibbulinopsis* Germain, 1919 - avlodi: *Gibbulinopsis signata* Mousson, 1873. *Pupilla* Turton, 1931 - avlodi: *P. (P) triplisata* (Studer, 1820), *P. (P) muscorum* (Linnaeus, 1758).

Enidae Woodward, 1903 - oilasi: *Pseudonapaeus* Westerlund, 1887 - avlodi: **Pseudonapaeus* (Ps.) *secalinus* (Martens, 1881), *Ps. (Ps.) albiplicatus* (Martens, 1874), *Ps. (Ps.) kasnakowi* (Westerlund, 1898), *Ps. (Ps.) otostomus* (Westerlund, 1899). *Ps. (Ps.) sogdianus* (Martens, 1874), *Ps. (Ps.) (Ps.) maydanica* Gaibnazarova et Pazilov, sp.nov. *Turanena* Lindholm, 1922 - avlodi: ***Turanena leptogura* (Lindholm, 1927), *

Turanena scalaris (Naegle, 1902). *Chondrulopsina* Lindholm, 1925 - avlodi: *Chondrulopsina intumescens* (E. Martens, 1874).

Bradybaenidae Pilsbry, 1939 - oilasi: *Fruticicola* Held, 1837 - avlodi: *Fruticicola perlucens* (Rosen, 1901), *Neofruticicola* Schileyko, Pazilov & Abdulazizova, 2020 – avlodi: ** *Neofruticicola donum* A.Schileyko, A.Pazilov, Sh.Abdulazizova, 2020.

Hygromiidae Tryon, 1886 - oilasi: *Leucozonella* Lindholm, 1927 - avlodi: *Leucozonella* (L.) schileyko Razilov et Daminova.2001. *Xeropicta* Monterosato, 1892 - avlodi: *Xeropicta candacharica* (L. Pfeiffer, 1846). *Hesseola* Lindholm, 1927 - avlodi: **Hesseola bactriana* (Hutton, 1849).

Agriolimacidae Wagner, 1975 - oilasi: *Deroceras* Rafinesque, 1820 - avlodi: *Deroceras agreste* (Linnaeus, 1758), *Deroceras reticulatum* Muller, 1774.


Parmacellidae Gray, 1860 - oilasi: *Candaharia* Godwin-Austen, 1888 - avlodi: *Candaharia levanderi* Simroth, 1901.

Helicarionidae Bourguignat, 1883 - oilasi: *Macrochlamys* Benson, 1832 - avlodi: **Macrochlamys kasnakowi* (Westerlund, 1898).

Gastrodontidae Tryon, 1866 - oilasi: *Zonitoides* Lehmann, 1862 - avlodi: *Zonitoides nitidus* (Miiller, 1774).

Succineidae Beck, 1837 - oilasi: *Novisuccinea* Pilsbry, 1948 - avlodi: *Novisuccinea evoluta* (Martens, 1879). *Succinea* Draparnaud, 1801 - avlodi: *Succinea putris* (Linnaeus, 1758).

Boysun tog‘ tizmasida 17 oila, 28 avlodga mansub, 47 turdagi qorinoyoqli mollyuskalar, jumladan, 17 tur suv va 30 turdagi quruqlik mollyuskalari uchrab, oilalar xilma-xilligi turlicha (2-rasm).



2-rasm. Boysun tog‘ tizmasida tarqalgan qorinoyoqli mollyuskalar oilalari turlar xilma-xilligi.

Masalan, suv qorinoyoqli mollyuskalardan Lymnaeidae oilasining turlar xilma-xilligi yuqori (7 ta tur) bo‘lib, tadqiqot hududida uchraydigan suv mollyuskalarining 41,7 % ini tashkil qiladi. Qolgan oilalarga: 2 (Horatiidae, Physidae) tadan va 3 (Belgrandiellidae, Planorbidae) tadan turlar kirib, foizga nisbatan mos ravishda 10% va 15% ni tashkil qiladi. Quruqlik mollyuskalarining oilalar xilma-xilligi suv

mollyuskalariga nisbatan yuqori bo'lib, tadqiqot hududida 12 oila vakillari uchrab, Enidae oilasi turlar xilma-xilligi boshqa oilalarga nisbatan yuqori, ya'ni 9 ta tur kirib, tadqiqot hududida uchraydigan quruqlik mollyuskalarining 30 % ni tashkil qiladi.

Qolgan oilalar: Orculidae, Parmacellidae, Helicarionidae, Gastrodontidae tarkibiga 1 ta (3,33%)dan, Valloniidae, Bradybaenidae, Agriolimacidae, Succineidae ga 2 ta (6,66%) va Cochlicopidae, Pupillidae, Hygromiidae oilalari tarkibiga esa 3 dan (10%) tur kiradi (2-rasm).

Dissertatsiyaning **“Boysun tog‘ tizmasida tarqalgan qorinoyoqli mollyuskalarning ekologiyasi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida qorinoyoqli mollyuskalarning yashash biotopi, statsiyasi, abiotik omillarga nisbatan tolerantligi va ozuqa turlari bo'yicha ekologik guruhlar tahlil qilingan. Boysun tog‘ tizmasida tarqalgan suv qorinoyoqli mollyuskalari yashash biotoplari bo'yicha: fitofil, krenofil, telmatofil, limno-krenofil, va madikol ekologik guruhlariga bo'linadi. Turlar soniga nisbatan fitofil guruh ko'pchilikni tashkil qilib, 7 tur kirib, foizga nisbatan 41% teng. Krenofil guruh turlar soni jihatidan fitofildan keyingi o'rinda turib, foizga nisbatan 35 % ga teng. Telmatofil guruhga 2 ta, limno-krenofil va madikol ekologik guruhlar tarkibiga 1 ta tur kirib foizga nisbatan 6 % foizni tashkil etadi.

Mollyuskalar qaysi biotopda yashashidan qat'iy nazar, ular hayoti davomida shu biotopdagi biror-bir substratga (yopishib), ya'ni statsiyalarda hayot kechiradi. Suv qorinoyoqli mollyuskalari statsiyalar bo'yicha 5 ta: fitobiont, petrobiont, pelobiont, fito-petrobiont va fito-pelobiont ekologik guruhlardan tashkil topgan.

Fitobiontlarga suv havzalaridagi o'simlik poyasiga yopishib hayot kechiradigan 7 tur kirib, foizga nisbatan 41,1% foizni tashkil etadi. Suvostidagi turli xil toshlarga yopishib yashaydigan-petrobiont ekologik guruh tarkibiga 5 ta tur kirib, foizga nisbatan 29,4% teng. Pelobiont va fito-petrobiont ekologik guruhlariga 2 tadan hamda fito-pelobiont guruhga 1 tur kirib ularning foizga nisbatan ulushi, mos ravishda 11,76% dan va 5,88% teng.

Suv qorinoyoqli mollyuskalar abiotik omillarga nisbatan tolerantligiga ko'ra stenobiont, mezo-evribiont va evribiont ekologik guruhlariga bo'linadi. Stenobiot ekologik guruh vakillari asosan sovuq suvli buloqlarda yashab, suvning harorati ko'tarilishi ularga salbiy ta'sir etadi, qaysiki ular suv haroratining o'zgarishiga chidamsiz bo'lib, tadqiqot hududida tarqalgan *Martensamnicola brevicula*, *M. hissarica*, *Bucharamnicola bucharica*, *Sogdamnicola pallida*, *Valvatamnicola prasina*, *Lymnaea oblonga*, *L. truncatula* kiradi. Mezo-evribiont ekologik guruh tarkibiga 6 tur (35,29%) va evribiont guruhga 3 tur kirib, foizga nisbatan ulushi 23,5% teng.

Quruqlik mollyuskalarining ekologiyasiga ta'sir etuvchi bir necha omillar mavjud bo'lib, bu omillar mollyuskalarning hayot tarzi, tarqalishi, populyatsiyasining rivojlanishi va biotsenozdagi rolini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, asosiy omillarga harorat va namlik kiradi.


Boysun tog‘ tizmasida tarqalgan quruqlik mollyuskalari: namlikka bo'lgan ehtiyojiga qarab, biror-bir substratga bog'liqligi-statsiyasi va ozuqa turlari bo'yicha ekologik guruhlariga ajratildi.

Yashash biotoplaridagi namlik darajasiga qarab, kserofil, mezofil, gigrofil va ikkita oraliq – kseromezofil va kriomezokserofil ekologik guruhlariga bo'linadi.

Kserofil ekologik guruhga namlik darajasi 50 % foizgacha bo'lgan biotoplarda, masalan, ochiq joylardagi o'simliklar poyasida, adir va tog' mintaqasida tepaliklarning janubiy yonbag'rlarida yashaydigan 5 ta tur (*Gibbulinopsis signata*, *Pupilla triplisata*, *Turanena leptogura*, *T. scalaris*, *Xeropicta candacharica*) kirib, foizga nisbatan, 17 % teng.

Tadqiqot hududida tarqalgan quruqlik mollyuskalarining yarmidan ko'pini, kseromezofil (37%) va mezofil (33%) ekologik guruh vakillari tashkil qilsa, gigrofil turlarga namlik darajasi yuqori (70-80%) bo'lgan biotoplarda yashaydigan 3 tur (*Zonitoides nitidus*, *Novisuccinea evoluta*, *Succinea putris*) va o'ta quruq, past harorat muhitlarida yashaydigan kriomezokserofil guruhga 1 tur (*Pseudonapaeus secalinus*) kirib foizga nisbatan mos ravishda 10% va 3% foizni tashkil qiladi.

Quruqlik mollyuskalarining faol davrida biror substratga yoki statsiyaga bog'liqligiga qarab: petrobiont, fitobiont, saprobiont, saprogeobiont, saproripabiont, saprokislobiont, epifitobiont, epigeobiont, epifitostrabiont, epifitopetrobiont, epifitoripabiont ekologik guruhlariga bo'linadi (3-rasm).



3-rasm. Boysun tog' tizmasi quruqlik mollyuskalarining statsiyalari bo'yicha ekologik guruhlar.

1-petrobiont, 2-fitobiont, 3-saprobiont, 4-saprogeobiont, 5-saproripabiont, 6-epifitogeobiont, 7-epifitobiont, 8-epigeobiont, 9-epifitostrabiont, 10- epifitopetrobiont, 11-epifitoripabiont.


Bir vaqtning o'zida barg to'shamalari va tuproqda yashaydigan saprogeobiont guruhi, turlar soniga nisbatan ko'pchilikni tashkil qiladi, 7 tur kirib, foizga nisbatan, tadqiqot hududida tarqalgan quruqlik mollyuskalarining 23% ini tashkil qiladi. Turlar

soniga nisbatan ikkinchi katta guruh *petrobiont* ekologik guruhi hisoblanib, unga tosh uyumlari va qoya yoriqlarida yashaydigan 5 tur (*Pseudonapaeus secalinus*, *Turanena leptogura*, *T. scalaris*, *Fruticicola perlucens*, *Neofruticicola donum*) kirib, foizga nisbatan 17% ga teng. Qolgan ekologik guruhlar tarkibiga 1 tadan 3 tagacha tur kirib, foizga nisbatan mos ravishda 3% dan 10 % gacha (3-rasm).

Quruqlik mollyuskalari o‘simlik barglari va poliz va sabzavot ekinlari nihollari, o‘simliklarning chirigan qoldiqlari, zamburug‘lar, ma’lum bir turlar hasharotlarning lichinkalari bilan oziqlanib, ular ozuqa xillariga ko‘ra, fitofag, saprofag va fitosaprofag ekologik guruhlariga bo‘lingan va dissertatsiyada batafsil tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Boysun tog‘ tizmasida tarqalgan qorinoyoqli mollyuskalar zoogeografik tarkibi va muhofazaga muhtoj turlar”** deb nomlangan beshinchi qorinoyoqli mollyuskalar zoogeografiyasi va muhofazaga muhtoj turlarni saqlab qolish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan.

Boysun tog‘ tizmasida tarqalgan suv qorinoyoqli mollyuskalari zoogeografik tarkibi geterogen xarakterda ega bo‘lib, 7 zoogeografik guruhdan tashkil topgan.



4-rasm. Suv qorinoyoqli mollyuskalarning zoogeografik tarkibi.

I. Keng tarqalgan palearktik turlar; II. Yevropa-sibir turlari; III. Janubiy-g‘arbiy Yevropa turlari; IV. Markaziy Osiyo turlari; V.Sirdaryo va Amudaryo o‘rta oqimi endemik turlari; VI. O‘rta-Amudaryo endemik turlari; VII. O‘rta Yer dengizi turlari.

Yevropa-Sibir, Sirdaryo va Amudaryo o‘rta oqimi endemik va O‘rta Yer dengizi turlari guruhlariga 3 tadan tur kirib, foizga nisbatan 17,64% ni tashkil qilsa, Keng tarqalgan Palearktik, Markaziy Osiyo turlari va O‘rta-Amudaryo endemik va Janubiy-g‘arbiy Yevropa guruhlariga 2 tadan tur kirib foizga nisbatan 11,76% tashkil etdi. Quruqlik mollyuskalarining zoogeografik tahlili shuni ko‘rsatdiki, Boysun tog‘ tizmasida quruqlik mollyuskalari 5 ta zoogeografik guruhdan (Palearktik va golarktik turlar, Yevropa turlari, Tog‘li Osiyo turlari, O‘rta Osiyo turlari, Old Osiyo turlari) tashkil topgan bo‘lib, turlar soniga nisbatan O‘rta Osiyo zoogeografik guruhi

tarkibiga 15 ta tur kirib, tadqiqot hududida tarqalgan quruqlik mollyuskalarni 50 % foizini tashkil qiladi. O'rta Osiyo zoogeografik guruhi tarqalishiga ko'ra 2 guruhga - tor va keng arealga ega bo'lgan turlarga bo'linadi. Palearktik va golarktik zoogeografik guruh tarkibiga 6 tur kirib, 20% tashkil qilsa, qolgan guruhlariga 3 tadan tur kirib, 10% ni tashkil qiladi.

Boysun tog' tizmasida ham Respublikamizning boshqa tog'li hududlari kabi chorvachilikning jadal sur'atlar bilan o'sishi, barcha balandlik mintaqalarda yaylovlar maydonining kengayib borishi, rekreatsion maqsadlarda tabiiy hududlarni o'zlashtirilishi mollyuskalarning hayot tarziga ham salbiy ta'sir etib, bu esa boshqa hayvonlar bilan bir qatorda mollyuskalar sonining kamayishiga va kamyob turlarning yo'q bo'lib ketish darajasiga olib keldi.

Tadqiqot hududida muhofazaga muhtoj mollyuskalarning ekologik holati, ya'ni turlarning tarqalish areallari, populyatsiyadagi zichlik ko'rsatkichlari va qay darajada muhofazaga muhtojligi o'rganilib, Xalqaro Qizil kitob kriteriyalari (IUCN Red list categories and criteria) asosida baholanib, muhofaza statuslari taklif etildi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Qizil kitobiga tavsiya qilinayotgan muhofazaga muhtoj mollyuskalarni ekologik baholash natijalari

№	Tur nomi	Status*		Populyatsiyasi**
		IUCN bo'yicha	O‘QK bo'yicha	
	Quruqlik qorinoyoqli mollyuskalari			
1	<i>Pseudonapaeus secalinus</i>	VU: R	ZQ	Stable →
2	<i>Turanena leptogura</i>	VU: D	ZQ	Decreasing ↓
3	<i>Neofruticicola donum</i>	VU: D	ZQ	Decreasing ↓

Izoh: * VU: D (Vulnerable: Declining) – zaif, qisqarib borayotgan; VU: R (Vulnerable: Naturally rare) - ZQ – zaif, tabiatan kamyob.

** : Stable – populyatsiyadagi holati barqaror; Decreasing – populyatsiyasi kamayib bormoqda.

Konxologik jihatidan o'xshash turlar (*Pseudonapaeus sogdianus*, *Ps. maydanica* va *Neofruticicola donum*, *Kugitangia hatagica*), molekyular-genetik jihatidan qanday farqlanishi quyida tahlil qilingan.

Konxologik jihatidan o'xshash turlar (*Pseudonapaeus sogdianus*, *Ps. maydanica* va *Neofruticicola donum*, *Kugitangia hatagica*), molekyular-genetik jihatidan farqlanishi tahlil qilinib, Boysun tog' tizmasida tarqalgan *Ps. sogdianus* va *Ps. maydanica* turlarining nukleotidlari o'rtasida 9 ta nukleotidlarda farqlanish borligi qayd etildi. Jumladan, 48 chi nukleotidda *Ps. maydanica* turida T-timin, *Ps. sogdianus* turida A-adenin; 49 chi nukleotidda *Ps. maydanica* turida T-timin, *Ps. sogdianus* turida

G-guanin; 55 chi nukleotidda *Ps. maydanica* turida S-sitozin, *Ps. sogdianus* turida A-adenin; 57, 188, 549 chi nukleotidlarda *Ps. maydanica* turida G-guanin, *Ps. sogdianus* turida T-timin; 369 chi nukleotidda *Ps. maydanica* turida A-adenin, *Ps. sogdianus* turida T-timin; 430 chi nukleotidda *Ps. maydanica* turida A-adenin, *Ps. sogdianus* turida S-sitozin; 610 chi nukleotidda *Ps. maydanica* turida T-timin, *Ps. sogdianus* turida S-sitozin nukleotidlari almashganligi qayd etildi.

O‘tkazilgan molekulyar-genetik tadqiqot natijalariga ko‘ra, Boysun tog‘ tizmasida tarqalgan *Ps. sogdianus* va *Ps. maydanica* turlarining nukleotidlari o‘rtasida 9 ta nukleotid farqlanish bo‘lib, umumiy nukleotidlar o‘rtasida 1,4% ni tashkil etdi (5-rasm).




5-rasm. Sekvens materiallari asosida *Pseudonapaeus* avlodiga mansub, *Ps. sogdianus*, *Ps. maydanica* turlarini rDNKsi 18S sohasining nukleotidlar ketma-ketligini taqqoslash.

Izoh: *Ps. sogdianus*, *Ps. maydanica* turlarini nukleotidlar ketma-ketligi. Konsensus – to‘g‘rilangan nukleotidlar ketma-ketligi (sohasi 5’ dan 3’-yo‘nalishda, nuqtalar bilan bir xildagi nukleotid asoslar belgilangan).

Molekulyar-genetik tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan *Pseudonapaeus* avlodiga mansub turlarning ribosomal DNKsining 18S sohasiga mansub nukleotidlar ketma-ketliklari hamda NCBI ba‘zasidan olingan nukleotidlar ketma-ketliklari hamda *Ariophanta* avlodiga mansub, *A. bistrialis* turining rDNKsini 18S sohasiga mansub nukleotidlar ketma-ketligi konsensus daraxtlarini ishlab chiqarishni osonlashtirish uchun tashqi guruh sifatida kiritildi (6-rasm).

Bioinformatik dasturlarning tahliliga ko‘ra, ushbu avlodga yaqin turlar va avlod vakillari 3 ta klad (guruh) larga birlashganligi kuzatildi. Quyidagi filogenetik

daraxtning birinchi guruhiga *Ps. albipicatus*, *Ps. maydanica*, *Ps. sogdianus*, *Ps. marteli* va *Ps. espiritusanta* turlari mansub bo‘lib, asosiy bo‘g‘inga nisbatan 96% li, turlar ichida esa 97% - 98% butistrap ko‘mak hosil qilib birlashtirilgan. Ikkinchi guruhda esa *Geomalacus* avlodiga tegishli, *G. squammantinus* va *G. maculosus* namunalari asosiy bo‘g‘inga nisbatan 97% li, turlar ichida esa 100% li, uchinchi guruhda, *G. signata* hamda *Chondrula* avlodiga mansub *Ch. tridens* turlari asosiy bo‘g‘inga nisbatan 83% li, turlar ichida 97% li butistrap ko‘mak hosil qilib birlashtirildi.



6-rasm. *Pseudonapaues* avlodi mollyuskalarining o‘zaro maksimal (maximum likelihood-ML) metodi asosida ishlab chiqilgan filogenetik shajara daraxti.

Neofruticicola donum va *Kugitangia hatagica* turlari bo‘yicha o‘tkazilgan molekulyar-genetik tadqiqotlar natijasi (sekvens xromatografiyasi) asosida Boysun tog‘ tizmalaridan yig‘ilgan namunalarning ribosomal DNK sini 18S sohasiga mansub uzunligi 607 juft asosga ega bo‘lgan nukleotidlar ajratib olindi (7-rasm).

Bioinformatik tahlil natijalariga ko‘ra, Boysun tog‘ tizmasida yig‘ilgan *N. donum* va *K. hatagica* turlarining nukleotidlari o‘rtasida 10 ta nukleotidlarda farqlanishlar aniqlanib ushbu farqlanishlar, 11, 26, 146 va 199 chi nukleotidda *N. donum* turida S-sitozin, *K. hatagica* turida T-timin, 22, 27, 208 va 252 chi nukleotidlarda *N. donum* turida T-timin, *K. hatagica* turida S-sitozin, 23 chi nukleotidda *N. donum* turida G-guanin, *K. hatagica* turida T-timin hamda 469 chi nukleotidda *N. donum* turida A-adenin, *K. hatagica* turida T-timin nukleotidlari almashganligi qayd etildi.

O‘tkazilgan molekulyar-genetik tadqiqot natijalariga ko‘ra, Boysun tog‘ tizmasidan yig‘ilgan *N. donum* va *K. hatagica* turlari namunalarning nukleotidlari o‘rtasida 10 ta nukleotid farqlanish bo‘lib, umumiy nukleotidlar o‘rtasida farqlanish 1,6% ni tashkil qildi.

(petrobiont, fitobiont, saprobiont, saprogeobiont, saproripabiont, epifitogeobiont, epifitobiont, epigeobiont, epifitostrabiont, epifitopetrobiont, epifitoripabiont) va ozuqa turlari bo'yicha esa 3 ta (fitofag, saprofag, fitosaprofag) ekologik guruhlarga ajraladi.

4. Konxologik jihatdan o'xshash *Ps. sogdianus* va *Ps. maydanica* turlarining rDNK 18S sohasidagi nukleotidlar ketma-ketligi tahlil qilinib, ular o'rtasida 9 ta nukleotid (umumiy nukleotidlarga nisbatan 1,4%), *N. donum* va *K. hatagica* turlari nukleotidlari o'rtasida esa 10 ta nukleotid (umumiy nukleotidlarga nisbatan 1,6%) farqlanish kuzatildi.

5. *Ps. sogdianus*, *Ps. maydanica* va *N. donum* turlarining nukleotidlar ketma-ketligi Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) bazasiga ilk marotaba joylashtirilib kirish raqamlari (*Ps. sogdianus*, (PP892183), *Ps. maydanica* (PP892186), *N. donum*, (PP915203) olindi.

6. Boysun tog' tizmasida tarqalgan suv qorinoyoqli mollyuskalarining 7 zoogeografik (Yevropa-Sibir, Sirdaryo va Amudaryo o'rta oqimi endemik, O'rta Yer dengizi, Palearktik, Markaziy Osiyo, O'rta-Amudaryo endemik va Janubiy-g'arbiy Yevropa) guruhi aniqlandi.

7. Quruqlik mollyuskalari 5 ta zoogeografik (Palearktik va golarktik, Yevropa, Tog'li Osiyo, O'rta Osiyo va Old Osiyo turlari) guruhga bo'linib, turlar soniga nisbatan O'rta Osiyo zoogeografik guruhi eng ko'p, ya'ni tadqiqot hududida tarqalgan quruqlik mollyuskalarni 50 % foizini tashkil qildi.

8. Boysun tog' tizmasi quruqlik mollyuskalaridan *Pseudonapaeus secalinus*, *Turanena leptogura* va *Neofruticicola donum* turlarini O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritish tavsiya etilib, mollyuskalarning tabiatdagi biologik xilma-xilligini saqlab qolish va noyob turlarning yo'q bo'lib ketishining oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.91.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ГУЛИСТАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

СОАТОВА ЗАРИНА АКВАРОВНА

**ФАУНА, ЭКОЛОГИЯ И ЗООГЕОГРАФИЯ БРЮХОНОГИХ
МОЛЛЮСКОВ (MOLLUSCA: GASTROPODA) БАЙСУНСКОГО
ГОРНОГО ХРЕБТА**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/B824

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на Веб-странице Научного совета (www.Guldu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Назиев Абдуваит
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Шакарбоев Эркинжон Бердикулович
доктор биологических наук, профессор

Боймуродов Хуснидин Тошбулгаевич доктор
биологических наук, профессор

Ведущая организация:

Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «15» _____ 2025 года в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.91.01 при Гулистанском государственном университете. (Адрес: 120100, город Гулистан Сырдарьинской области, 4-й мкр. Тел.: (+99867) 225-39-25, факс: (+99867) 225-39-25, E-mail: glinfo@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Гулистанского государственного университета (зарегистрирована за №95). Manzil: 120100, Адрес: 120100, город Гулистан Сырдарьинской области, 4-й мкр. Тел.: (+99867) 225-39-25.

Автореферат диссертации разослан «23» 10 2025 г.
(Реестр протокола рассылки № 23 от «10» _____ 2025 г.).




Б.Е.Тухтаев
Заместитель председателя
Научного совета по присуждению
учёных степеней, доктор биологических наук,
профессор


Ф.Н.Ганиязова
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.б.н.,
доцент


Э.Б.Шакарбоев
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (АННОТАЦИЯ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом масштабе обостряется проблема сохранения биологического разнообразия, обусловленная постепенным сокращением природных экосистем, резкими климатическими изменениями и усилением антропогенного воздействия. Особенно остро данная проблема проявляется в горных районах, характеризующихся высоким биологическим разнообразием моллюсков: развитие горнодобывающей промышленности, вырубка древесно-кустарниковой растительности и чрезмерное использование пастбищ в животноводстве приводят к изменению структуры популяций моллюсков и резкому сокращению числа видов. В этой связи научные исследования, посвященные оценке современного фаунистического состояния моллюсков (Mollusca: Gastropoda), обитающих в горных экосистемах, приобретают особую актуальность.

В мире серьезное внимание уделяется изучению влияния различных групп моллюсков, широко распространенных как в естественных, так и в антропогенно трансформированных средах, на экосистемы и биологические системы в целом. Также основными направлениями исследований являются: выявление факторов, воздействующих на популяции моллюсков; разработка эффективных мер по их охране; формирование обновлённой базы данных по малакофауне; изучение экологических особенностей конкретных регионов; проведение молекулярно-генетического анализа спорных (конхологически сходных) видов; определение их зоогеографического состава; оценка степени антропогенного воздействия на ландшафты предгорий и гор; разработка мероприятий по контролю численности вредоносных видов, а также проведение научных изысканий по выявлению редких и охраняемых видов.

В Республике уделяется пристальное внимание решению задач, связанных с устойчивым использованием биологических ресурсов и сохранением биоразнообразия. В частности, предпринимаются меры по снижению деградации природных экосистем с целью предотвращения изменений в популяции моллюсков, а также по охране редких и исчезающих видов. В этой связи особую научную значимость приобретают оценка современного состояния фауны, экологии и зоогеографии брюхоногих моллюсков (Mollusca: Gastropoda) Бойсунского горного хребта, обоснование их экологических особенностей и жизненного цикла, а также разработка мероприятий по сохранению редких и находящихся под угрозой исчезновения видов.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени направлено на реализацию задач, определённых Указом Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № ПФ-4947 «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан»¹, Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Законом Республики Узбекистан от 19

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.

сентября 2016 года № ЗРУ-408 «Об охране и использовании животного мира», Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 7 ноября 2018 года № 914 «О ведении государственного учёта объектов животного и растительного мира, учёта объёмов их использования и государственного кадастра», Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 июня 2019 года № 484 «Об утверждении Стратегии сохранения биологического разнообразия в Республике Узбекистан на 2019–2028 годы», а также иными нормативно-правовыми актами, регламентирующими соответствующие направления деятельности.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики V. «Сельское хозяйство, биотехнологии, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. Исследования, посвящённые систематическому положению, экологии и изменчивости брюхоногих моллюсков, проводились ведущими зарубежными учёными, такими как Г.Фалкнер, Р.А.Банк, Т.Прошвиц (2001), Б.Факон, П.Жарн (2005), Р.Пиколл, П.Э.Смоус (2006), Э.Э.Стронг (2008), С.А.Бахоум, М.А.Сайед-Ахмед, Э.А.Рагхеб (2009), М.Стефан (2018) и другими. В странах СНГ сведения о систематике, зоогеографии, эволюции и хозяйственном значении наземных моллюсков Центральной Азии отражены в научных трудах М.С.Алексеевниной, Ю.В.Пресновой (2009), С.С.Крамаренко (2009), С.И.Андреевой, Н.И.Андреева, М.В.Винарского (2010), Ю.В.Шикова (2012, 2013, 2016), Е.А.Снегина, В.В.Адамовой (2016), Е.Снегина (2017), М.В.Винарского, Ю.С.Бабушкина (2018), И.А.Балашова (2016, 2021).

